

G`OZG`ON MARMAR KONINING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI VA SHAHAR TASHKIL QILISHDAGI AHAMIYATI

Kodirova Maxfuza Maxmudovna, katta o`qituvchi.

Nabiyeva Parvina, talaba. Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Maqolada G`ozg`on marmar koni, marmar xomashyosi va va bu kondagi mahsulotlarning tavsifi, ishlab chiqarish xususiyatlari va undan xo`jalikda foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Hozirgi davrda G`ozg`on shahrining barpo etilishi va sanoat korxonalarining ixtisoslashuvi to`g`risida ma`lumotlar berilgan.

Kalit so`zlar. Marmar, granit, kon, sanoat korxonasi, qurilish materiallari ishlab ciqarish.

GEOGRAPHICAL FEATURES OF THE GAZGAN MARBLE DEPOSIT AND ITS SIGNIFICANCE IN THE ORGANIZATION OF THE CITY

Kodirova Maxfuza Maxmudovna teacher

Nabiyeva Parvina student Navoi State Pedagogical Institute

Annotation. The article describes the Gozgan marble deposit, marble raw materials and products of this deposit, production characteristics and the possibility of its economic use. At present, information has been provided on the construction of the city of Gazgan and the specialization of industrial enterprises.

Keywords. Marble, granite, mining, industrial enterprise, building materials production.

G`ozg`on marmar koni Navoiy viloyati Nurota tumanidagi noyob dekorativ xususiyatli marmar olinadigan kon bo`lib, Navoiy shahridan 65 km shimolda, Nurota tizmasining g`arbiy chekkasidagi G`ozg`ontog` tizmasida joylashgan. Kontaxta, Kash-kash, Bo`shang, Varajan, Chorquduq, Parg`at, Pashshot konlari bir-biridan teng masofada (10-12 kilometr atrofida) joylashgan. Kon 1935—75 yillar mobaynida o`rganilib, 1970 yildan boshlab sanoat miqyosida foydalanilmoqda. G`ozg`ontov tog`lari uzunligi 40 km, eni 1—6 km gacha bo`lgan, shimoliy g`arbiy yo`nalishda cho`zilgan kichik antiklinal burmadan iborat. Uning yadrosi Nurota batolitining shimoli-g`arbiy chekkasidagi intruziv (granitoid) jinslaridan, qanotlari esa paleozoyning cho`kindi metamorfik jinslaridan tarkib topgan. Kesimning asosida slanes konglomeratli qalin qatlam yotadi va bu qatlam pastdan yuqoriga qarab 6 ta gorizontga bo`linadi. Bu gorizontlarning umumiy qalinligi 950—1100 m bo`lib, granit-aplitli va diabazli daykalar yorib chiqqan turli rangdagi marmarlardan tarkib topgan. 5- gorizont mahsuldor hisoblanadi va uning qalinligi 50—220 m, yotish burchagi 40°. Bu gorizont Kash Kash-Yangi maydonida joylashgan, u yerda sanoat asosida marmar qazib chiqarish 1935 yilda boshlangan.

Konda 5 ta maydon razvedka qilingan. Har bir kondagi toshlar rangi, qattiqligi, donadorligi bilan farq qiladi. Agar dunyoda marmarning oʻrtacha qattiqlik darajasi 2700–2800 kg/m³ ga teng. Gʻozgʻon marmarining fizik-mexanik xususiyatlari: zichligi—2,6 g/sm³, gʻovakliligi 0,8%, suv singdirishi 0,3%, qisilishga mustahkamlik chegarasi 110 — 160 MPa, yemirilishi 0,28 g/sm³. Marmar mayda donali, tekis kristalli, zich, chinnisimon, oʻrta qatlamlidan qalin va yirik qatlamligacha. Baʼzi qatlamlar 0,2—0,5 dan 1 m gacha yoki undan ham ortiq. Marmar kalsit (85—90%), dolomit (10—15%), kvarts (2—3%) donalaridan tarkib topgan. Aralashmalari— muskovit tangachalari, piritning mayda donalaridan iborat. Qazib olingan marmarning baʼzi bloklari koʻndalangiga 0,5—1,0 dan 2 m gacha, goho undan ortiq boʻladi. Rangi har xil toʻq kulrang va tutun rangdan pushtigacha, och sariq, yashil, baʼzan oq, jami 35 xildan ortiq rangga ega. Ranglar notekis taqsimlangan, yoʻl-yoʻl koʻrinishda. Asosiy rangi 5 xil: oq (12%), pushti (14,5%), sariq (0,5%), tutun rangli (54%) va yoʻl-yoʻl toʻq kulrang boʻladi. Ranglarining darajasiga koʻra 2 tipdagi marmar mavjud: och va toʻq rangli marmar qatlamlari orasida och ranglilar 78% ni, kulranglari esa 22% ni tashkil qiladi. Konda qatlam boʻyicha tik va diagonal darzliklar sistemasi mavjud. Marmarni arralash tabiiy qatlamlar boʻylab amalga oshiriladi. Chiqindisidan marmar maydasi, quyma tosh va qum ishlab chiqariladi. Gʻozgʻon marmari nisbatan moʻrt, yaxshi silliqlanadi, oynasimon aks beradi, yuqori darajada dekorativ. Ulardan binolarning ichki va tashqi tomonlarini qoplashda hamda elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Gʻozgʻon marmari va graniti qadim, asl dovrugʻini tiklash, bebaho yer osti xazinasidan xalqimiz farovonligi yoʻlida oqilona foydalanish ishlariga 2018 yildan chinakamiga kirishildi. Mamlakatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev 2018 yilning 2 mart kuni Navoiy viloyatiga tashrifi chogʻida ushbu qurilish materiallariga ichki va tashqi bozorda talab yuqoriligini taʼkidlab, hududda eng zamonaviy texnologiyalarga asoslangan granit va marmarni qayta ishlash korxonalarini barpo etish vazifalarini belgiladi.

Shu asosda Oʻzqurilishmateriallari” aksionerlik kompaniyasi hamda “Ozmilliybank” AJ taʼsischiligida “Marmarobod” MChJ klasteri loyihasi ishlab chiqilib, 2019-2020 va 2021-2022 yillarga moʻljallangan ikki bosqichli, jami 64 loyihadan iborat investitsion rejalar majmuasi tasdiqlandi. Unga koʻra marmar va granit qazib olish hajmi qariyb toʻrt,

qayta ishlash hajmi esa besh baravarga oshirilishi rejalashtirilgan. Bu jami 14 ta MChJlar tomonidan birinchi bosqichda 52 million, ikkinchi bosqichda 145 million AQSh dollari miqdoridagi investitsion loyihalarni ishga tushirishni o'z ichiga oladi. Ta'kidlash joiz, toshga ishlov berishga asoslangan mazkur klasterning 37 gektarlik hududi – G'ozg'onning sanoat shaharchasida karantin davrida ham bunyodkorlik ishlari bir zum bo'lsa-da to'xtagani yo'q. Tadbirkorlarning ixcham sexlari qurilish va jihozlarni o'rnatish ishlari, xarsang zaxiralarini yaratish, hududni obodonlashtirish ishlari amalga oshirilib, dastgohlarni ishlab chiqarishga moslashtirish xitoylik mutaxassislar ishtirokida olib borildi. Toshga ishlov berish murakkab jarayon. Bunda Xitoy texnologiyasining afzalligi shundaki u stanoklarni zo'riqtirmay, toshga bosqichma-bosqich ishlov beradi. Qolaversa, mazkur jarayon tayyorlanayotgan mahsulotda kutilmagan darz ketish holatlarining ham oldini oladi. Mana shunday texnologiyaga asoslangan yana bir korxonalar – "Marmarobod" MChJda dastgohlarni ishlab chiqarish jarayonlariga moslashtirish ishlari olib borildi. Mazkur loyihada toshga ishlov berishning barcha jarayonlarining kompyuterlashtirilganligi mahsulot tannarxini 25-30 foizga pasaytirmoqda va mahsulotning tashqi va ichki bozorda raqobatbardoshligini yetakchi omillardan biri.

Keyingi izlanishlar natijasida granitning o'ta noyob yana bir rangdagi turi G'ozg'on kengliklaridan topilgan bo'lib, granitning tim qora rangdagi bu turi "Gabbro granit" deb ataladi. Bugungi kunda mazkur toshning zaxiralarini o'rganish, xulosa olish ishlari olib borilmoqda. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, mamlakatimiz rahbarining tashabbusi asosida amalga oshirilgan mazkur innovatsion loyihalar sohaga eng ilg'or texnologiyalarni jalb etib, unda tayyorlangan mahsulotlar Yevropa bozorlarida raqobatbardoshligini ta'minlab, G'ozg'on jilosini hamda graniti dovrug'ini ta'minlashi shubhasiz. Albatta, bu pirovard natijada 2700 kishining doimiy bandligi bilan birga hududning iqtisodiy barqarorligi va aholi farovonligini yanada oshiradi.

G'ozg'on shahri tashkil etilishi jihatdan O'zbekistonning eng kenja shahri hisoblanadi. Yaqin vaqtgacha Navoiy viloyati Nurota tumanining bir qismi bo'lib kelgan G'ozg'on shaharchasi 2019 yilda viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritilgandi. Vazirlar Mahkamasining «Navoiy viloyati tarkibida G'ozg'on shahar hokimligini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq G'ozg'on

shahrini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi ishlab chiqildi va u quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Bunda: shaharda qurilish materiallari ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etish orqali aholi bandligini ta'minlash;

shahar hududida geologiya-qidiruv ishlari ko'lamini kengaytirish orqali yangi konlarni aniqlash va o'zlashtirish choralari ko'rish;

shaharda ko'p xonadonli uylar qurilishini tashkil etish orqali urbanizatsiya darajasini oshirish va aholi uchun munosib turmush sharoitini yaxshilash ishlariga asosiy e'tibor qaratadi.

Aslida G'ozg'on shahrining dovrug'i azaldan dunyoga ketgan. Bu yerdagi konlardan qazib olingan, 35 xil rangni o'zida aks ettirgan marmar mahsulotlari dunyoning ko'pgina davlatlarida muhtasham binolarga zeb berib turibdi. Eron, Turkiya, Qozog'iston, Afg'oniston, Tojikiston kabi davlatlarning tarixiy obidalarini restavratsiya qilishda, Moskva va Sankt-Peterburg shaharlaridagi metro bekatlari, vokzallar, Ostankino teleminorasi, Kiyevdagi "Ukraina" saroyi, Bakudagi 26-Baku komissari yodgorligi, Novosibirskdagi sirk binosi, Bishkekdagi drama teatri, Moskvadagi Tretyakov galereyasi qurilishida G'ozg'on marmari ishlatilgan. Mamlakatimizdagi muzeylar, Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatri, O'zbekiston mehmonxonasi, ko'plab mehmonxonalar, saroy, muzey va boshqa ob'ektlarning bezak ishlarida G'ozg'on marmaridan foydalanilgan.

Shahar hokimligi matbuot xizmatining ma'lumot berishicha, dunyoda tuzilishi jihatdan xilma-xil marmarning bir hududda uchrashi faqatgina G'ozg'on hududida kuzatiladi. Ayni vaqtda hududda 2 ta yirik marmar koni hamda "Pashot I" va "Galyaren" kabi granit konlari bor. Ushbu konlarning umumiy hajmi marmar bo'yicha 36 million m³ni, granit bo'yicha 108,3 million m³ni tashkil etadi. Bu marmar zaxirasi Navoiy shahri maydonidan qariyb 10 barobar, G'ozg'on shahrining o'z maydonidan esa qariyb 52 barobar katta degani. Bundan tashqari, hududda hali o'rganilmagan va geologiya qidiruv ishlari o'tkazilmagan konlar ham ko'p.

Alohida shahar maqomini olgach, G'ozg'onda asta sekinlik bilan o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Ayni damda turli tashkilot va boshqaruv organlarining shahar bo'limlari uchun ma'muriy binolari qurilmoqda, ichki yo'llar kengaytirilib, turli xizmat ko'rsatish

ob'ektlari tashkil etilyapti. Eng muhimi, hududda shaharning "tashrif qog'oziga" aylangan "Marmarobod" tabiiy toshlarni qazib olish va qayta ishlash klasteri ish boshladi.

Prezidentimiz G'ozg'onga tashrifi chog'ida bu yerdagi marmar va granit konlari haqida to'xtalib, ularni qayta ishlash bo'yicha sanoat korxonalarini qurish taklifini bergan edi. Shu taklif asosida "Marmarobod" klaster loyihasi amalga oshirildi. Loyiha doirasida konlardan marmar va granit qazib olib, shu yerning o'zida qayta ishlagan holda eksportga chiqarish asosiy vazifa etib belgilangan. Hozirgi kunda korxonada faoliyati yanada kengaytirilib, qo'shni davlatlar bilan qo'shimcha shartnomalar tuzilyapti hamda klaster tarkibida yangi zavodlar qurilyapti. "Marmarobod" MChJda 300 nafarga yaqin ishchilar faoliyat ko'rsatmoqda. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga Tojikiston, Qozog'iston, Rossiya, Turkmaniston, Ozarbayjon va Yevropa davlatlari qiziqish bildirmoqda.

Korxonada konlardan tashib kelingan marmar va granit toshlar bir necha bosqichda qayta ishlanib, tayyor mahsulot ko'rinishiga keltiriladi. 2022 yilda ham G'ozg'onda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Xususan, marmar va granit plitalar ishlab chiqarish hisobiga "Edifice Aspire" MChJ tomonidan qariyb 2,6 million AQSh dollari hamda "Navoiy Procces Stone Company" MChJ tomonidan 1,5 million AQSh dollari miqdoridagi mablag'lar o'zlashtirilishi rejalashtirilgan.

Bir so'z bilan aytganda, G'ozg'on-eksport salohiyati yirik hudud. Mazkur imkoniyatdan foydalanish, mahalliy va xorijlik investorlar bilan manfaatli kelishuvlarni yo'lga qo'yish nafaqat ushbu hudud taraqqiyoti, balki Navoiy viloyati sanoat salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. "Navoiy o'tmishi qadim kelajagi nurli diyori" jurnali. "Ma'naviyat", T.: 2012. – 3-bet.
2. Maktabda geografiya (ma'naviy-ma'rifiy ta'limiy jurnal), T.: 2010. 10/22-son.
3. S. Qorayev "O'zbekiston viloyatlari toponimlari". –T.: 2005. -85-bet.
4. S. Qorayev "Toponimika". –T.: 2006. -152-bet.